
ZAMONAVIY, KO'RKAM TA'LIM DARGOHLARI

Quva tumani Paxtakor qishlog'ida yangi bunyod etilgan 216 o'rinli 67-umumta'lim maktabi mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirildi. Qurilish ishlariga 2 mlrd 940 mln. so'm mablag' sarf etildi. Maktab atrofi obodonlashtirilib, o'quv yiliga taxt holga keltirildi. Shinam xonalar, laboratoriya, kutubxona, ma'naviyat xonasi, zamonaviy sport zal, o'quvchilarning bilim va saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Toshloq tumanida ham 10-umumta'lim maktab binosi kapital rekonstruktsiya qilinib, 420 o'rinli qo'shimcha bino bunyod etilmoqda.

Yozyovon tumanidagi 9-umumta'lim maktabining 80 o'rinli maktab filiali "Star" MChJ tomonidan qurib bitkazildi.

Yozyovon tumanidagi 8-umumta'lim maktabida o'quvchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 240 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi hamda sport zali barpo etildi. Ertamiz egalari o'quv yilini yangi binolarda boshlaydilar. Chiroyli, zamonaviy jihozlangan xonalar jajji qalblarga ulkan orzular solishi, shubhasiz. Qolaversa, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyat hokimining tashabbusi bilan 348 nafar kam ta'minlangan oila farzandlari maktab formalariga ega bo'ldilar.

Kamola POLVONOVA

2017-10-13 16:44:49